

## MAKTABLARDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH VA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

*A.A Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti metodik xizmat ko'rsatish  
bo'limi metodisti*

**Ostanova Xurshidabonu G'afurovna**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada ta'lim sifatini yaxshilash borasida zamonaviy ped texnologiyalar hamda yangi boshqaruv va baholash usullari va ulardan samarali foydalanish borasidagi fikr-mulohazalar keltirilgan.*

**Аннотация.** *В данной статье представлены отзывы о современных педагогических технологиях, новых методах управления и оценки и их эффективном использовании для улучшения качества образования.*

**Annotation.** *This article provides feedback on modern pedagogical technologies and new management and evaluation methods and their effective use in improving the quality of Education.*

**Kalit so'zlar:** *sifat, ta'lim, kreativlik, axborot-kommunikatsiya, an'anaviy,*

### KIRISH

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

“Sifat” tushunchasi turlicha, ba'zan bir-biriga zid ma'noda talqin qilinadi. Pedagogika fanida u: bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim ahamiyatga ega bo'lgan belgilar, xususiyatlar, o'ziga xosliklar; shuningdek u yoki bu xususiyat, qadr, yaroqlilik darajasi, ma'naviy-ahloqiy kategoriya yoki sof iqtisodiy tushuncha kabi talqin etiladi. Ba'zi olim va amaliyotchilar uni ta'lim tizimining o'zlashtirish sifatiga erishishga intilishi; boshqalar o'qitish va tarbiyalashning sifati, uchinchilar, shaxs iqtidori rivojlanish darajasining oshishi; to'rtinchilar, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari sonining ko'payishi; beshinchilar oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga tayyorgarligi darajasini tushunadilar.

Ta'lim sifati va uni ta'minlovchi omillar: ta'lim mazmunining fundamentalligi, ma'lum ehtiyojlarning qondirilishi, maqsad va natijalarning mutanosibliigi, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ijodiy faoliyati, boshqarishga kompleks yondashuv, fanlararo integratsiya va boshqalar orasidagi bog'liqliklarni tavsiflashga nisbatan turli qarashlar mavjud.

Ta'lim sifati – bu nafaqat ta'lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi, shuningdek har bir pedagog va rahbarning ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyati hamdir.

Zamonaviy ta'lim muassasasida ta'lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va amalga oshirish darajasini, u kechadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to'plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Ta'lim sifatini boshqarish (ta'lim sifati menejmenti) ta'limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta'lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan va amalda o'z samaradorligini ko'rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O'z o'rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta'lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o'zi, bajarish yo'llari, alohida usul va xarakterlarning batafsil tartibi, ta'lim sifatini ta'minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Demak, ta'lim sifatini boshqarish ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldiradi, ya'ni u ta'limni boshqarish yaxlit tizimining tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi.

Ta'lim sifati tashqi auditini jalb qilgan holda o'quv muassasasi faoliyatini tizimli va holis baholashga tayanuvchi ta'lim sifatini ta'minlash tizimining rivojlanish mantiqi ta'lim muassasalarida ta'lim sifati menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishni taqazo qiladi.

Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot- ta'lim muhitiga integrallashishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o'zgarishlar bilan kuzatilmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda

qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir.

AKT — bu turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga ishlov berish usullaridir. U birinchi navbatda, zarur dasturiy ta'minotga ega bo'lgan kompyuterlar va ma'lumotlar joylashtirilgan telekommunikatsiya vositalaridir. 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risidagi» Qonunining 1-moddasida fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari belgilab berildi hamda har kimning bilim olishdek konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilganligi ta'kidlandi. Hozirgi davr ta'lim bosqichining yangi talablariga ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bunda masofaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash va uni boshqarish ham muhim o'rin tutadi. Bu borada, Respublikamizda qator dolzarb ishlar olib borilmoqda. Yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan o'qitish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda qo'llash zamonaviy ta'limning asosiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tajribali pedagoglar o'qitish jarayonini isloh qilish yo'llarini idirishda davom etib quymasdan, pedagogik texnologiyalari yoki o'qitish texnologiyalarini yaratishga katta ahamiyat kasb qilmoqda. «Pedagogik texnologiya» termini o'tgan asrning 60-yillari boshlarida xorijiy davlatlarda paydo bo'lib, shu kungacha «Pedagogik texnologiya» bir nechta chet davlatlarda yan'iy, AQSH, Yaponiya va Angliya nufuzli jurnallarida va YUNESKO xalqaro tashkiloti ta'lim bo'yicha xalqaro byurosi byulletenida «Pedagogik texnologiya» seriyasida nashr qilinib kelmoqda.

Xususan, maktablarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish sur'ati jadal oshib bormoqda. Axborotlar oqimining ortib borishi va ta'lim metodlarining murakkablashishi bilan ta'limni asosan an'anaviy usulda tashkil etish tobora qiyinlashib bormoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'quv jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim sohasi uchun nihoyatda keng imkoniyatlarni taqdim qiladi: differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi; teskari aloqa bog'lashi; o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi; darslarda animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanilishi; o'quvchilarga fanni o'zlashtirish uchun ko'nikmalar hosil qilishi va hokazo. Bilishning asosini amaliyot tashkil etadi.

Axborot texnologiyalari esa ana shu jihatdan ham o'z ustunligiga ega. O'rganilgan nazariy bilimlarning texnik vositalar asosida amaliy jihatdan ham yoritib berish imkoniyatining mavjudligi o'quvchilarning ta'lim jarayonida yanada faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Axborotni qabul qilish va o'zlashtirish, ikki tomonlama muloqot (o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi o'rtasida)ni samarali tashkil etish o'quvchilar faolligining yuqori bo'lishini talab etadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari esa o'z navbatida motivlarni yuzaga keltiruvchi eng muhim omillardan biridir. Chunki, axborotlarning jamlanganligi, ko'rgazmaliligi, ya'ni turli xil taqdim etish imkoniyatlariining mavjudligi, animatsiyalardan foydalanish, ta'lim-tarbiya oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos axborotlarni taqdim etib borish o'quvchilarda ta'limga bo'lgan qiziqishni va bilim olishga

bo'lgan ichki harakatlantiruvchi kuchlar(motiv)ni yuzaga keltiradi. Bu borada olib boriladigan ishlar mazmuni motivni o'stirishga, uni qo'ya bilishni o'rgatishdan iborat.

#### XULOSA

Shunday qilib, ta'limda baholash va zamonaviy axborot texnologiyalari foydalanishda kompyuter vositalari yordamida olib boriladigan dars an'anaviy darsdan o'quv jarayonini tashkil etish va unda ishlatiladigan metodlar bilan ham farqlanadi. O'qish jarayoni o'quvchining mustaqil bilim olishiga asoslanadi. Bu tamoyil o'qitish jarayonida ishtirok etuvchi sub'ektlarning munosabatini va o'qituvchining jarayondagi rolini aniqlaydi. Shuning uchun ham axborot texnologiyalari, kompyuter asosida darslarda qiziqish, o'zini-o'zi boshqarish, yangi bilimlarni o'zlashtirib borishga intilish dars oxirigacha saqlanib qoladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha <https://president.uz/uz/lists/view/3924>

2. Усманов Р.Н. Интеллектуализация процесса принятия решений в условиях нечеткой исходной информации // Алоқа Dunyosi. – Ташкент, 2007.

3. Усманов Р.Н. К вопросу интеграции нечетко-множественного подхода в процесс диагностики состояний сложных систем // Химическая технология. Контроль и управление. - Ташкент, 2006.

4. Ramatov, J. S., Raximova, M. I., & Hasanov, M. N. (2022). MAFKURAVIY TAHDIDLARNI OLDINI OLISHDA ISLOMIY QADRIYATLARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 3(6), 1031-1036

5. Qurbonov SH, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /T.: "Turon-Iqbol", 2006. 592 b.

6. Total Quality Management – всеобщее управление качеством. – Журнал "Директор-Иваново", № 1-2 (120-121), январь-февраль 2011 г.

7. ДОМУЛАДЖАНОВ, И. Х., ДЕХКАНОВА, Н. Н., & ЖАМОЛИДДИНОВА, Н. Б. К. ВОЗДЕЙСТВИЕ ЗАГРЯЗНЕНИЯ АТМОСФЕРЫ НА ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ.

8. Дехканова, Н. Н. (2021). ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ВЫСШИЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ. Научный редактор, 29.

9. Исмаилов, М. Ю., & Дехканова, Н. Н. (2023). Получение и очистка нафтеновых кислот синтетическим методом. Universum: химия и биология, (2-1 (104)), 54-58.

10. Усмонов, А. Х., & Дехканова, Н. Н. ЗАКОНОМЕРНОСТИ АДСОРБЦИИ СЕРОВОДОРОДА, В ЦЕОЛИТЕ NaX. ЖАРЧЫСЫ, 279.

11. Дехканов, Т., Оринов, Ф., Рахманов, З., & Дехканова, Н. (2014). Морфология апудоцитов и некоторые вопросы патогенеза экспериментальных апудопатий. Журнал вестник врача, 1(3), 91-93.



12. Абдурахмонов, Э. Б., Дехканова, Н. Н., Рахматкариева, Ф. Г., Кохаров, М., & Жамолиддинова, Н. Б. К. (2022). КАЛОРИМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АДСОРБЦИИ МЕТИЛМЕРКАПТАНА В ЦЕОЛИТЕ NaX. *Universum: химия и биология*, (11-2 (101)), 22-28.
13. Дехканова, Н., Рахматкариева, Ф., & Жамолиддинова, Н. (2022). ТЕРМОДИНАМИКА АДСОРБЦИИ СЕРОВОДОРОДА НА ЦЕОЛИТЕ NaX. *Farg'ona davlat universiteti*, (3), 51-51.
- 14.